

QO'L JANGI SPORT TURINI HUQUQNI MUXOFAZA QILISH ORGAN XODIMLARI ORASIDA NUFUZINI YANADA OSHIRISH

N.G'.Mustafoev

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti,
Jismoniy tayyorgarlik va sport kafedrasida katta o'qituvchisi*

M.M.O'rolov

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti,
Jismoniy tayyorgarlik va sport kafedrasida o'qituvchisi*

Annotatsiya :Maqolada huquqni muhofaza qiluvchi organlari jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotlarida bosqichma-bosqich o'zbek qo'l jangi ustuvor sport turini takomillashtirish zaruriyati bo'yicha ilmiy asoslangan fikrlar bayon qilingan bo'lib, huquqni muhofaza qiluvchi organlari xodimlari malakasini oshirib borish hamda harbiy ta'lim muassasalari tinglovchilari tayyorgarligida zarur bo'lgan jismoniy sifatlar ochib berilgan.

Kalit so'zlar: o'zbek qo'l jangi sporti, yangi uslubda, jismoniy tarbiya, sport, jamoat xavfsizligi, kuch, ko'nikma, malaka, barqarorlik, harakat, salomatlik, jarayon, taraqqiyot.

Xozirgi inovatsion o'sish davrida xususan mardlik, jasurlik, vatanparavarlik, gumanizm g'oyalarini o'zida mujassam etgan O'zbekiston respublikasi Milliy gvardiya raxbariyati tashabuslari bilan sportning eng ommobob bo'lgan qo'l jangi turini ommalashtirish, va yangi uslubda xuquqni muxofaza qilish idoralariga tanitish hamda ushbu yangi yo'nalishda rivojlantirish orqali jinoyatchilikni oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha asosiy sport turiga aylantirilishi uchun qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, O'zbekiston respublikasi Milliy gvardiya qo'mondoni tomonidan qo'l jangining tobora ommalashib borayotganligi nufuzli musobaqalarni tashkil qilishga, mavjud infratuzilma va moddiy-texnik bazani modernizatsiya qilishga, sport inventarlari va kiyimlari ta'minotini yaxshilashga, bu borada ishlab chiqarishni kengaytirishga, shuningdek, xuquqni muxofaza qilish idoralarida qo'l jangi bo'yicha malakali kadrlar, trenerlar va hakamlar tayyorlashga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirishni talab etmoqda.

Xozirgi davirda xorijiy mamlakatlarning milliy sport turlari bilan Qurolli Kuchlari va huquqni muhofaza qiluvchi organlari jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotlarida asosiy ustuvor sport turi sifatida shug'illanib kelishmoqda. Masalan Rossiya "sambo", Koreya "taekwon-do", Tayland "moyatay", Indoneziya "pinchak-silak", Xitoy "ushu, kun-fu, xitoy boksi", Fillipin "pikia tirsia kali", Yaponiya

“karate, aykido, dzyu-do, djiu-djitsu”, Yevropa “sebeorana” Amerika mamlakatlarda “kik-boks, djiu-djitsu, kapuero”. Va xokozo

O‘zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiya, Qurolli Kuchlari va huquqni muhofaza qiluvchi organlarining xodimlar va xizmatchilari, kursantlar va tinglovchilar xamda askarlar milliy kurashimiizning ko‘p ming yillik tarixini chuqur o‘rganishlari lozim. Xaqiqatan xam ajdodlarimizdan meros bo‘lib kelgan Kurash azaldan polvonlarning jismoniy va ma‘naviy yetukligi namunasi sifatida sharaf topganligini, qadrlanganligini tasdiqlaydi.

Shu bois polvonlarning jismoniy va ma‘naviy yetukligi namunasi sifatida sharaf topganligini, qadrlanganligini tasdiqlaydi. Shu bois polvonlarning jismoniy baquvvatligi, navqiron qaddi-qomati yoki kurashchanlik, chaqonu epchillik jixatlari bir tomonu, ularning keng davrada o‘zlarini qanday tutishi, odob-axloqi, ma‘naviy qiyofasi, raqibiga muomalasi, jamiyatga, tevarak-atrofga munosabati, vatanparvarligi aloxida o‘rin tutgan.

Mustaqil dunyokrash va erkin tafakkurni shakllantirish;

Xur fikrli, mutelik va jur‘atsizlikdan xoli bulgan, o‘z bilimi va kuchiga ishonib yashaydigan qat‘iyatli insonni tarbiyalash;

Odamlar, ayniqsa, yoshlarning irodasini baquvvat qilish, muxit yaratish;

Inson tafakkurida o‘zlikni anglash, muqaddas qadriyatlarni asrab- avaylash, mexr- muxabbat tuyg‘usini kamol toptirish;

Oliyjanob insonlarga xos bo‘lgan iymon-e‘tikod, insof- diyonat, saxovat, xalollik, mexr- oqibat kabi fazilatlarni yuksaltirish;

Ishonch bilan shuni aytilish mumkinki, irodani toblaydigan, kishini xalollik sari intilishga undaydigan, qiyinchiliklarni bardosh va chidam bilan yengib o‘tishga o‘rgatadigan, inson qalbida g‘alabaga ishonch, g‘urur va iftixor tuyg‘ularini shakllantirishga xizmat qiladigan Kurash shiddatkor xayot talablariga javob bera oladigan shaxslarga, bunyodkor yoshlarning barkamol bulishida o‘zining benazir xissasini qo‘shadi. Zero, polvonlik falsafasi kishini komillik sari yetaklaydi.

Qo‘l jangi sportini an‘analarini boyitib va qadriyatli qilib kelajak avlodlarga yetkazish, o‘zbek qo‘l jangi sporti brendi nomi bilan respublikamizning sport majmualarida, oliy ta‘lim va maktab sport zalarida yoshlarni o‘zbek qo‘l jangi sportga bo‘lgan qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish orqali ularda vatanparvarlik tuyg‘usini yanada mustahkamlash, aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, yoshlarni, mazkur sport turi bilan shug‘ullanishi uchun zarur sharoitlar yaratilishi ko‘zlangan.

O‘zbek qo‘l jangi sport turini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari aholining barcha qatlamlarini O‘zbek qo‘l jangi sport turi bilan tanishtirishga va shug‘ullanishga keng jalb qilish hamda O‘zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiya, Qurolli Kuchlari va huquqni muhofaza qiluvchi organlari jismoniy tayyorgarlik

marshg'ulotlarida bosqichma-bosqich o'zbek qo'l jangi ustuvor sport turlari sifatida shug'ullanib moxirona o'zlashtirishlari lozim.

O'zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiya, Qurolli Kuchlari va huquqni muhofaza qiluvchi organlarining xodimlar va xizmatchilari, kursantlar va tinglovchilar xamda askarlar o'zbek qo'l jangi sport turi bilan shug'ullanishi, ushbu sport turi bilan musoboqalarda qatnashishi orqali xizmat bilan bog'liq katta jismoniy ish va psixologik keskinlik sharoitlarida xar xil xarakatlarni muvaffaqiyat bilan qo'llash uchun o'z maxorati va malakasini oshiradilar. Xuquqni muhofaza qiluvchi organlarining xodimlar va xizmatchilar, kursantlar va tinglovchilar xamda askarlar qo'l jangi bilan shug'ullanishi orqali dushman bilan olushuvida g'olib chiqishi uchun kerakli bo'lgan ussularni egallashadi.

O'zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiya, Qurolli Kuchlari va huquqni muhofaza qiluvchi organlarining xodimlarni va xizmatchilarni, kursantlarni va tinglovchilarni xamda askarlarni jismoniy jixatdan tayyorlash tizimida qo'l jangining quolsiz ximoyalanish usullari muxim rol o'ynaydi. Quolsiz ximoyalanishda xodimlarning turli xolati mustaxkam, xarakatlanuvchan xamla qilishga va ximoyaga qulay bo'lishadi.

O'zbek qo'l jangiga milliy kurash turlaridagi eng yaxshi usullar kiritilgan sport turidir. Shu sababli ajdodlarimizdan yodgor bo'lib kelgan qadimiy qadriyatlarimiz, xususan mardlik, jasurlik, vatanparavarlik, gumanizm g'oyalarini o'zida mujassam etgan milliy sportimiz bo'lgan kurash usullari juda boy, keng va xar xildir.

Xodimlar o'z xizmatini burchini bajarish paytida murakkab vaziyatlarda ulardan qo'l jangi usullarini tez va kerak bo'lsa moxirlik bilan qo'llashni talab qiladi. Bularning xammasi xodimlar, kursant va tinglovchilar qo'l jangi usullarini mukammal bilishlarini va ularni bajarish texnikasini takomillashtirishda tartibli shug'ullanishga talab qiladi.

Qonunni ximoya qilish O'zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiya, Qurolli Kuchlari va huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlarining asosiy vazifalari bo'lib, butun kuchlarini jinoyatchilikka qarshi, jamoat xafsizligi uchun kurashda ishlatadilar, insoniyat davlat ximoyasida ekanligiga ishonch xosil qilishda, xech bir jinoyatchi jazosiz qolmasligiga xarakat qilishlari kerak, O'zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiya, Qurolli Kuchlari va huquqni muhofaza qiluvchi organlarining xodimlari, kursantlari va tinglovchilari siyosiy yetuk, jismoniy baquvvat va ma'naviy barkamol bo'lishlari zarur.

O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati, Mudofaa vazirligi, Milliy gvardiyasi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi va O'zbekiston qo'l jangi federatsiyasining tashabuslari bilan qo'l jangi bilan shug'ullangan xodimlari va harbiy xizmatchilar tomonidan yoshlarni ushbu sportga yanada keng jalb etish orqali sog'lom turmush tarzini faol targ'ib qilish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda yoshlarni "Polvonlari ko'p yurt qudratli bo'lur" degan yagona shior ostida

birlashtirish maqsadida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida bepul qo'l jangi seksiyalari tashkil etildi.

Yuqorida qayit etilgan qo'l jangini mamlakatimizda yanada rivojlantirish, yoshlarni ushbu sport bilan shug'ullanishi jamoat xafsizligini ta'minlashda, jinoyatchilikni oldini olishda va unga qarshi kurashda muxim ahamiyatga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyot va manbalar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi – T.: O'zbekiston, 2019.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi 394-sonli Qonuni – Lex.uz.
4. <http://www.lex.uz> (O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi).
5. <http://press-service.uz/uz> (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti).
6. <http://book.uz/> (Elektron adabiyotlar kutubxonasi).
7. <http://www.xs.uz> («Xalq so'zi» gazetasi).
8. В.С. Кузнесов, Г.А. Колодниский Физическая культура. (СПО). Учебник. Москва 2020.
9. В. Баршай, М.В. Белавкина, В.Н. Кривсун, В.Н. Курыс Гимнастика (Бакалавриат). Учебник. Москва 2020.